# QANDLI DIABETLI BOLALARDA PARODONT KASALLIGI RIVOJLANISHI

**Avazova Shahlo Nuritdinovna**
Assistent
Alfraganus University
**Usmonova Shoira Ravshanbekovna**
*tibbiyot fanlari doktori, dotsent*
*Alfraganus University*
**Axmedova Sayora Maxamadovna**
*tibbiyot fanlari doktori, professor*
Toshkent tibbiyot akademiyasi
**Muxamedova, Nurxon Halimovna**
*tibbiyot fanlari doktori, professor*
Toshkent tibbiyot akademiyasi
**Usmonov Asilbek Farxodovich**
2-kurs talabasi
*Alfraganus University*

**Annotatsiya.** Tadqiqotning maqsadi 1-tip qandli diabetli bolalar va o’smirlar orasida parodont kasalliklarining paydo bo’lish chastotasini o’rganish. 5 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan qandli diabetli 70 nafar bola tekshirildi. Tekshirilgan bolalarda parodont kasalligi 5 yoshdan boshlab paydo bo’lganligi aniqlandi va o’smirlarda parodontning eng og’ir o’zgarishlari - parodontit holatida aniqlandi.

**Kalit so’zlar:** 1-tip qandli diabet, parodont, bolalar.

So’nggi yillarda 1-tip qandli diabetli bolalar sonining ko’payish tendentsiyasi kuzatilmoqda [5,6,8]. Birinchi marta aniqlangan 1-tip qandli diabetning chastotasi hozirgi kunda ortib bormoqda, shu jumladan bolalarda ham.

Parodont kasalliklari qandli diabetli bolalarning 60-70 foizida uchraydi (L.S.Shugar va boshqalar).

T.F.Vinogradova qandli diabetli bolalarning 51,2% da, P.A. Leus, A.A.Goreglyand, A.I.Volojin - bolalarning 50-60 %da parodont zararlanishlarini

qayd etadi. Shu bilan birga, V.Y.Xitrov parodont to’qimalarning shikastlanishi 1-tip qandli diabetga chalingan bolalarning 86,3% da aniqlagan.

Tadqiqotimizning maqsadi 1-tip qandli diabetli bolalar va o’smirlar orasida parodont kasalliklarining paydo bo’lish chastotasini o’rganish. Endokrinologiyada davolanayotgan 70 kishi tekshirildi.

5 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan 1-tip qandli diabet tashxisi qo’yilgan bolalar tekshirildi. Yoshga qarab barcha bemorlar 3 guruhga bo’lindi: 1 guruh - 5 yoshdan 9 yoshgacha bo’lgan bolalar (bolalik davri) (mediana 7 yosh); 2 guruh - 10 yoshdan 14 yoshgacha (balog’at davri) (mediana 12 yosh) va 3 guruh 15 yoshdan 18 yoshgacha (katta o’smirlik davri) (mediana 16 yosh).

1-tip qandli diabetning diagnostikasi endokrinolog tomonidan amalga oshirildi, tekshiruv natijalari kasallik tarixiga qayd etildi. Barcha bolalar standart stomatologik tekshiruvdan o’tdilar. Parodont to’qima va og’iz bo’shlig’I gigiyenasining holatini ob’ektiv baholash uchun quyidagi usullardan foydalanildi: qon ketish indeksi (QI, JSST, 1977), Shiller-Pisarev sinamasi, PMA, parodont indeksi (PI, Russel, 1956), Y.A.Fedorov, V.V.Volodkina bo’yicha gigiyena indeksi (GI F-V), soddalashtirilgan gigiyena indeksi OHI-S.

Tekshiruv natijalari shuni ko’rsatdiki, tekshirilgan 70 nafar boladan 50 nafari (72%) parodont kasalligiga chalindi. 1-tip qandli diabetli o’g’il va qiz bolalarda parodont kasalliklarning paydo bo’lish chastotasi turli yosh davrlarida deyarli bir xil bo’ldi (P>0,05) (1-rasm).




**1-rasm. 1-tip qandli diabetli bolalarda parodont kasalligining jins va yoshga qarab tarqalishi (%).**

1-rasm ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, 10-14 yoshdagi bolalarda parodont kasalliklarining paydo bo’lishi 2,5 baravar ko’paygan va 15-18 yoshli qandli diabetli o’smirlarda bu darajada saqlanib qoldi. Gigiyena indeksining yuqori ko’rsatkichlari (2-rasm) qandli diabetli bolalarda og’iz suyuqligidagi glyukoza miqdorining ko’pligi sabab bo’ladi, bu E.S.Oganyan (2001) ma’lumotlariga ko’ra og’iz bo’shlig’ining gigiyenik holatini yomonlashtiradi.




**Yoshga ko’ra 1-tip qandli diabetli bolalarda og’iz bo’shlig’i gigiyena holatini indeksli baholash ko’rsatkichlari.**

1-tip qandli diabetli bolalarda og’iz bo’shlig’I gigiyena holatini baholashning indeks ko’rsatkichlarini taqqoslashda, 5-9 yoshda og’iz bo’shlig’ini qoniqarsiz gigiyenik parvarish qayd etilganligi aniqlandi (gigiyena indeksi (GI F-V - 2,7; OHI-S -1,9). 10-14 yoshda bu ko’rsatkichlar ham qoniqarsiz (GI F-V - 3,0; OHI-S - 2,0) va ular oldingi yosh guruhiga nisbatan ko’paygan. 15-18 yoshda gigiyena indekslari qiymatlarining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi, bu 1-tip qandli diabetli va parodont kasalliklariga chalingan o’spirinlarda og’iz bo’shlig’ining yetarli gigiyenik holatini ko’rsatdi (GI F-V - 1,8; OHI-S - 0,3). Shunday qilib, tekshirilayotgan bolalar va o’smirlarda og’iz bo’shlig’ining gigieynik holati 10-14 yoshda yomonlashdi va 15-19 yoshda sezilarli darajada yaxshilandi ($p<0,05$).

Qandli diabetning dekompensatsiya turida og’iz bo’shlig’ining gigiyenik holatining yomonlashishi organizmning reaktivligining pasayishi fonida tish karashi mikroflorasining patogen xususiyatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.




**Yoshga ko’ra 1-tip qandli diabetli bolalarda parodont kasalliklarning tuzilishi (%).**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Rayfield E.J., Ault M.J., Keusch G.T., Brothers M.J., Nechemias C., Smith H. Infection and diabetes: the case for glucose control.// American Journal of Medicine, 1982, № 72:439-450

2. Wilson R.M. Infection and diabetes mellitus. // Textbook of Diabetes Blackwell Scientific Publications, London: 813-818.

3. Kaslow R.A. Infections in diabetics. Diabetes in America.// NIH Publication №. 85, p.1468.

4. Lewis R.P., Sutter V.L., Finegold S.M. Bone infections involving anaerobic bacteria.// Medicine, 2003, 57: 279-305.

6. . Shah H.N., Collins D.M. Proposal for classification of Bacteroides asaccharolyticus, Bacteroides gingivalis, and Bacteroides endodontalis in a new genus, Porphyromonas.// International Journal of Systematic Bacteriology, 2002, № 38: 128- 131.

5. Genco R.J. Classification and clinical and radiographic features of periodontal disease. // Contempory periodontics. St. Louis: Mosby, 2004, 63-81.

6. Mukhamedova N, Kh. Dysfunction of the tubules during the diabetes of the nephropathy // Аллергология и иммунология журнал– Россия, 2013. - № 2. - С. 127-129 (14.00.00; №120)